CHINGIZ AYTMATOVNING ILK ASARLARIDAGI BADIIY MATNDA TASVIRLANGAN NAFAQAT KO‘Z ILG‘AYDIGAN, KO‘RADIGAN, BALKI HIDLAB, HIS ETILADIGAN, TINGLAB ESHITILADIGAN DETALLAR OLAMINING YORQINLIGI

Abdusalamova Lobar Akbar Qizi, *“Ipak yo’li” turizm va ma’daniy meros xalqaro universiteti tayanch doktoranti*
e-mail: cool.abdusalamova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov ijodining ilk sahifalarida yaratilgan hikoyalarida biri bo`lgan “Baydamtal sohillarida” hikoyasi, matnda tasvirlangan nafaqat ko‘z ilg‘aydigan, ko‘radigan, balki hidlab, his etiladigan, tinglab eshitiladigan detallar ham yorqinligi bilan ajralib turadi. Hikoyada axromatik ranglar ustivorlik qiladi. Ushbu hikoyadagi quturib oqayotgan daryo tasviri asosiy qaxramonning ko‘nglida kechayotgan hislar tug‘yonini, qo‘rquvini, ikkilanishlarini aks ettiradi.

Kalit so’zlar: “hikoya ichida hikoya”, Baydamtal daryosi obrazi, metaforali “qil ko‘prik” motivi, g‘oyaviy-badiiy pafos darajasi, ovozli o`rama doira, tabiat tasviri, fonologik detallar, axromatik ranglar

Аннотация. В данной статье повесть «На берегах Байдамтала», являющаяся одной из повестей, созданных на первых страницах творчества Чингиза Айтматова, отличается яркостью описанных в тексте деталей, которые не только видны, но и также нюхать, чувствовать и слушать. Ахроматические цвета доминируют в этом рассказе. Образ бушующей реки в этом рассказе отражает эмоции, страхи и колебания главного героя.

Ключевые слова: «рассказ в рассказе», образ реки Байдамтал, метафорический мотив «построим мост», уровень идейно-художественного пафоса, звуковой оберточный круг, образ природы, фонологические детали, ахроматические цвета.

Annotation. In this article, the story “On the Banks of Baidamtal”, which is



one of the stories created on the first pages of Chingiz Aitmatov’s work, is distinguished by the brightness of the details described in the text, which are not only visible, but also smelled, felt and listened to. Achromatic colors dominate this story. The image of the raging river in this story reflects the emotions, fears and hesitations of the main character.

Key words: “story within a story”, image of the Baidamtal River, metaphorical motif “let’s build a bridge”, level of ideological and artistic pathos, sound wrapping circle, image of nature, phonological details, achromatic colors.

Ch.Aytmatov ijodining ilk davriga tegishli “Baydamtal qirg‘og‘ida” hikoyasida, bir paytlar M.Dostoyevskiy tomonidan berilgan mashhur “Men kimman? Insonmi yo hech kim?” savoliga o‘ziga xos tarzda javob izlanadi. Asar qaxramonlari Nurbek va Asiya. Asiya ovloq tog‘ stansiyasida gidrolog bo‘lib ishlaydi. Bu yerda yana qariya Asilboy va uning o‘g‘li Bektemir xotini hamda farzandi bilan yashaydi.

Nurbek, o‘zi mexanik bo‘lib ishlayotgan sovxozning traktorini ag‘darib qo‘yib, uyat va sharmandalikdan qutulish uchun toqqa qochib chiqib ketadi va adashib qoladi. Yomg‘irli, bo‘ronli tundan so‘ng uni Bektemir Baydamtal daryosi qirg‘og‘idan hushsiz va shamollab ketgan kasal holda topib oladi. Nurbek qo‘rqoq, ojiz kimsa, javobgarlikdan qochadi. Kuchli insonlar, ayniqsa, Asiyaning ta’sirida sog‘aygach, u sovxozga qaytadi. Baydamtal ustidan o‘tadigan og‘ir va murakkab o‘tkazgichdan oshib o‘tish davomida Nurbekning qalbida keskin o‘zgarish sodir bo‘ladi. Hikoya ham dastlab “Og‘ir o‘tkazgich” deb nomlangan ekan. Keyinchalik Ch.Aytmatov folklor an’anasiga tayanib, hikoyaga Talas vodiysi qizlarining qo‘shig‘idan epigraf tanlaydi va asar nomini ham o‘zgartiradi: “Quturadi Baydamtal daryo // Ehtiyot bo‘l, tunlar kechuvdan...”. Bu ikki misrada va butun asarda mavjud dramatizm asar nomini o‘zgartirilishi bilan orqa planga ko‘chirilganday bo‘ladi, silliqlanadi. Asar qaxramoni daryodan kechuv orqali emas, ustidan, baland osma qil ko‘prik orqali o‘tadi. Arqonga osilgan kajava, odam o‘tiradigan uskuna, yo‘lning o‘rtasida buzilib qoladi, ammo Nurbek yo‘lni davom



ettiradi. Dramatizmga to‘liq bu sahna shunday tasvirlanadi: “Nurbek, kajavani qoldirishga qaror qildi. Qo‘llari bilan yuqorida osig‘lik trosga chirmashib, qirg‘oqqa yetib oladi. Ha, ha, u shunday qiladi, faqat yuqoridagi va pastdagi tros oralig‘i uning bo‘y-bastidan katta bo‘lmasa bo‘ldi, aks holda u yuqoridagi trosga osilib qoladi, oyog‘i tayanadigan narsa bo‘lmaydi. Ammo bir boshga bir o‘lim...!”[1]

Endi Nurbek ketishi mumkin edi, ammo u kechasi ketayotgan edi, toki uni hech kim ko‘rmasin deb; u shunchaki o‘zini qutqazgan va asrab, issiq joy bergan odamlardan qochib ketmoqchi edi. Nurbek Asiyani sevib qolgan edi, ammo o‘zini unga munosib bilmasdi va o‘z muxabbati bilan unga salbiy ta’sir ko‘rsatishdan qo‘rqardi. Butunlay ketishga keskin qaror qabul qilib, ketish oldidan u bir lahzaga o‘tish ko‘prig0iga nazar tashladi va hayratdan dong qotdi, “...qo‘rqinchi fikrlardan nafasi qisildi: ... qanaqasiga axir, kajavani sindirib qo‘yib, qochib ketishi mumkin? Ular meni o‘limdan saqlab qolishdi, davolashdi, men esa minnatdorchilik o‘rniga zarar yetkazib, qochib ketyapman-a?”[1,27]. Shu o‘y-xayollardan so‘ng u osma tros bo‘ylab ortga qaytadi, asbob-uskunalarni olib kajavani ta’mirlashga va joyida tuzatishga qaror qiladi. Ortga qaytib o‘tish yanada og‘ir, chunki u charchab bo‘lgan. Ammo u barchasiga chidaydi. Va u “Inson!” degan ulug‘ nomga munosib qoladi. Tong saxarda ta’mirlab bo‘lgan yigit, ishlarni tugatib sovxozga jo‘nab ketadi.

Nurbekning qilig‘i, uning qochishi, bizga yozuvchining “Sarvqomat dilbarim” (“Тополёк мой в красной косынке”) qissasidagi Ilyosni eslatadi. Bu asarda ham qaxramon telejkani ag‘darib qo‘yib, hafsalasi pir bo‘ladi, qalban ruhi sinadi va o‘z baxtini yo‘qotadi.Ammo qissada o‘xshash vaziyat kengroq psixologik va falsafiy mazmun kasb etadi.

Asiya – kuchli, ichki olami ma’naviy jihatdan poetik oziqlangan. Bunday odamlar doim hurmatga sazovor, ularning qo‘lidan hamma ish keladi. Hatto u shahardan keltirgan olma ko‘chatlari ham notabiiy shart-sharoitlarda o‘nib o‘sadi, meva beradi.



Daryoga yaqinlashar ekan Asiya doimo hayajonlanadi. Chunki daryo uning uchun faqat ish joyi emas, balki u ruhiy kuch oladigan ma’naviyat manbai hamdir. Inson tabiatni anglar ekan, u inson yaxshilanib boradi, uni sevgan odam, boshqalar taqdiriga, hayotiga befarq qololmaydi.

“Baydamtal sohillarida” hikoyasi matnda tasvirlangan nafaqat ko‘z ilg‘aydigan, ko‘radigan, balki hidlab, his etiladigan, tinglab eshitiladigan detallar ham yorqinligi bilan ajralib turadi. Hikoyada axromatik ranglar ustivorlik qiladi. Ayniqsa, “qora”ning yarim ko‘rinishi va ohorlari (qoramtir suv, qorong‘u, qora aralash, tund oqshom, zulmat, qoravut bulutlar). Bu tusdagi ranglar tasvirlangan peyzaj, aksariyat hollarda, ma’naviy kuch va ilhom manbai bo‘lgan Baydamtal daryosi tasviriga tegishli. Muallif bu bilan qaxramonlarining tabiatga, ona zaminga yaqinligini, ularning taqdiri uzviy bog‘lig‘ligini ta’kidlaydi. Peyzaj va uning tasviriga singdirilgan odorokolofonik birliklar hikoyada ajralib qolmagan, aksincha, qaxramonlarning ichki olami, kechinmalari uyg‘un tarzda muvofiqlashadi va muallifning badiiy g‘oyasi ochilishiga xizmat qiladi: “To‘satdan kuchli yomg‘ir boshlandi. Ko‘z ochib yumguncha paydo bo‘lgan loyqa oqimlar qiyaliklar bo‘ylab shiddat bilan oqib, quyosh nuriga to‘la sayhonliklarni yuvdi, keksa daraxtlarni tomiri bilan qo‘porib, harsanglarni tubsiz jarliklarga inqitdi... Qorong‘ulik tushgan bo‘lsa-da, daryoning vaqti-vaqti bilan qora to‘lqinining tikka sakrab qirg‘oqqa yugurganligini ko‘rish mumkin edi”[1,6].

Nurbek obrazi bilan bog‘liq ranglar xira tasvirlanadi: “Havo nam, yopishqoq edi, osmon to‘liq kul rang-kir bulutlar bilan qoplanib, quyosh nurlari uni yorib o‘tolmayotgan bo‘lsa-da, asfalt ustigi qor erib borardi”[1,11].

Hikoya matni odoristik detallar juda kam uchraydi, aniqrog‘i uch o‘rinda qo‘llanilgan. Birinchi marta, Nurbek uzoq sovxozga mexanik bo‘lib ishga ketmoqchi bo‘lganida o‘rik shoxlari “to‘lishib kelayotgan gul ko‘rtaklari nozik ufor taratardi”; ikkinchisi, Nurbekning oldingi sevgilisi, “sevimli atir ufori taratadigan” Aynagulning rasmi bilan bog‘liq epizodda. Bu hid bir necha misrada qizning tabiatini ochishga xizmat qiladi. U qaysidir vazirlikda kotiba bo‘lib ishlar



va Nurbekning quruq yerga ishga ketmoqchiligi haqidagi xabarni peshonasini “tirishtirib” eshitadi. Uchinchi marta odoristik detal hikoya syujetining kulminatsiyasida, Nurbek, osma ko‘prikdan o‘tib bo‘lgan sahna tasvirida ishlatiladi: “O‘tdim! O‘tdim!- baqirardi u quvonchdan, va yer hidini to‘yib simirgancha, muloyimlik bilan shivirlardi: -Yer, yer! Endi istagan joyingga yetib bora olaman!..”[1,27]. Inson o‘ta baxtli yoki baxtsiz damlarda yer hidini to‘yadi, sezadi, bu paytda Nurbek baxtli edi.

Peyzajni tasvirlash an’anasi, ma’lumki rus adabiyotida nihoyatda takomillashgan. Bir paytlar A.Grigorev N. Aksakovning tabiatni tasvirlash manerasi haqida yozib, shunday ta’kidlagan edi: “tabiatga munosabat mutlaqo sokin, to‘laqonli, xuddi uy bekalarinikidek, hatto qisman kibrlidek, manerasining buyoqlari sodda, mustahkam, o‘ta yorqin emas, ammo mutlaqo tund deb bo‘lmaydi, bu turli tuman boyliklarga to‘la o‘lkaning tabiati, barchasi inson foydasiga xizmat qiladi, buzilmagan, bokira, shu sababli ham qudratli”[3,13]. Bu mulohazalarni to‘lasincha Ch.Aytmatov ijodiga, ayniqsa, uning birinchi bosqichiga nisbatan qo‘llasa bo‘ladi. Aytmatov asarlarida tabiat tasviri shunchaki ko‘ngil kechinmalari foni bo‘libgina qolmasdan, balki insondan barcha ortiqcha sun’iy va soxta narsalarni inqitib, uning ichki mohiyatini yoritadigan chiroq bo‘lib xizmat qiladi. “Baydamtal sohillarida” hikoyasida quturib oqayotgan daryo tasviri, Nurbekning ko‘nglida kechayotgan hislar tug‘yonini, qo‘rquvini, ikkilanishlarini aks ettiradi.

Hikoya matni mo‘jizali tovushlar olamiga yo‘g‘rilganligini takidlamoq joiz (daryo guldirashi, momoqaldiroq chaqnashi, burgut chinqirig‘i, odamlar ovozi), ular syujetda o‘ziga xos kompozitsiya yaratuvchanlik, shakllantiruvchilik vazifasini bajaradi va xuddi koloristika kabi muallifning badiiy g‘oyalarini ochilishiga xizmat qiladi. Sertashvish tovushlar, o‘ziga xos “chaqiriqlar” Nurbek obrazi dinamikasiga hamroxlik qiladi. Asar leytmotivi bo‘lgan “men insonmanku” shiori bu tovushlar hamrohligida jaranglaydi. Asardagi tovushlar ahamiyatini aniq va yorqin namoyon qilish uchun, biz bir tajriba natijalariga murojaat



qilmoqchimiz. To‘g‘ri, bu tajriba boshqa soha vakillari, ya’ni biologlar tomonidan o‘tkazilgan. Tajribaga jalb etilgan o‘simliklar uchun har kuni tongda yigirma besh minutlik konsert tashkil etishgan olimlar, o‘simliklar barglarida hayot faoliyati keskin o‘zgarganligini, protoplazmalar harakati tezlashganligini yoki aksincha, baland gapirib turgan radipriyemnikni chinnigul oldiga qo‘yib qo‘yishsa uning so‘lib borayotganligini kuzatishadi[4,48]. Nurbek obrazini yoritishda va ijobiy tomonga o‘zgarishida tovushlar xuddi shunday katta rol bajarishadi.

Hikoya qaxramonlari tovushlar jo‘rligida paydo bo‘lishadi va ular butun asar davomida birga bo‘lishadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, hikoya matni tovushlardan iborat o‘ziga xos doiraga, uning tarkibini, tuzilishini shakllantiruvchi o‘ramaga aylanadi. Bu ovozli o‘rama doiraga “hikoya ichida hikoya” ham sig‘diriladi. Bu hikoya Nurbekning daryo qirg‘og‘iga kelguniga qadar xo‘jalikda kechgan hayoti to‘g‘risida. U ham tovushlar-fonologik detallarga juda boy hikoya.

Hikoyada Baydamtal daryosi obrazi, metaforali “qil ko‘prik” motivi bilan birga, o‘ta katta ahamiyatga va falsafiy majoziy ma’noga ega. Asiyaning qichqiriqlari esa, o‘quvchini bu falsafiy mazmun to‘g‘risida bosh qotirishga undaydi. Nurbek, “tosh qiyalik bo‘ylab daryo qirg‘og‘iga tushdi, va shunday suv yoqasidagi toshga o‘tirdi. Baydamtal, odatdagidek, o‘kirar, ingrar edi.”[1,23]. Endi bu qo‘rqitmoqchi bo‘layotgan daryoning shunchaki ovozi emas, balki bunday ma’naviy-ruhiy qiyofadagi Nurbekni qabul qilmoqchi bo‘lmagan poklik va qudrat ramziga aylangan Daryo tovushidir. Bu hissiy-ta’sirchan, emotsional baho tovushlarning takror tasvirlanishi, berilishi vositasida kuchaytiriladi: “To‘lqinlar yana yuugurib kelishib, Nurbekning oyog‘ini urishdi. Go‘yo ular “Ket, yo‘qol bu yerdan!” deyayotgandek edi”. Shu tariqa “Baydamtal sohillarida” hikoyasida tasvirlangan tovushlar qatorining roli Chingiz Aytmatov tomonidan g‘oyaviy-badiiy pafos darajasiga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Айтматов Ч. Повести. - М.: СП. - 1987. – С. 340
2. Айтматов Ч. Рассказы. –М.: СП, 1958. – С. 127



3. Айтматов Ч. Собрание сочинений в 3-ёх томах. Том 3. -М.:1982. – С.13
4. Куйбишев, Звук и свет в жизни животных -: 1967. - С .48
5. Сохряков Ю.М. Художественные открытия русских писателей. - М.: 1990. - С.13.
6. О.Н. Юсупов. Структура художественного перевода. Вестник НУУ 3 (1), 318-320

